



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 19-fevral

VII-6-16-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

### **Tumanda 2025 yilda byudjetdan ajratilgan pul mablag'laridan maqsadli sarflanishi yuzasidan maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i Sh.Sultonovning hisoboti to'g'risida**

2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining byudjet kodeksi hamda xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrda "Kattaqo'rg'on tumanining 2025 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VII-2-031-7-96-K/24-sonli qarori ijrosini ta'minlanish yuzasidan tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i Sh.Sultonov hisobotini muhokama etib, Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonunning 6-, 25-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Tumanda 2025-yilda byudjetdan ajratilgan pul mablag'laridan maqsadli sarflanishi yuzasidan maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i Sh.Sultonovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o'rinbosarlari O.Shirinov, L.Raxmonov, tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Sh.Sultonov) tuman mahalliy byudjeti mablag'lari hisobidan ajratilgan pul mablag'laridan samarali foydalanish yuzasidan monitoring olib borish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimi o'rinbosari O.Shirinov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Obbozov) tuman maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarida mahalliy byudjetdan ajratilgan mablag'larni maqsadli ishlatilishi yuzasidan nazorat o'rnatish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijro etishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev), Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari N.Jo'imatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH